

## SHEVA SO'ZLARINING SHE'RDAGI ZAVQI

**Javlanbek Matnazarov**

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Urganch davlat universiteti

**Malohat Atayeva**

Urganch davlat universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada shoir Matnazar Abdulhakim she'rlari tilida uchraydigan dialektal leksik birliklar lingvopoetikasiga e'tibor qaratilgan bo'lib, bu birliklarning badiiy vazifasi adabiy tilda yozilgan she'rlarda qo'llangan sheva so'zlari poetikasi va shevada yozilgan she'rlardagi dialektal so'zlar poetikasi tarzida guruhlab o'rganilgan. Maqolada bundan tashqari muallif she'rlarida uchraydigan mahalliy lakunalar poetikasiga ham diqqat qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** lingvopoetika, dialektal so'zlar, lakunalar, shevaviy omonimlar, o'g'uz lahjasi, Xorazm shevalari.

**Annotation.** In this article, it is given the linguopoetics of dialectal lexical units found in the language of poet Matnazar Abdulhakim's poems, and the artistic function of these units is studied by grouping them in the form of poetics of dialect words used in poems written in literary language and poetics of dialectal words in poems written in dialect. It is also covered the poetics of local lacunae found in the author's poems.

**Key words:** linguopoetics, dialectal words, lacunae, dialectal homonyms, Oghuz dialect, Khorezm dialects.

Tilshunoslik ilmida badiiy matnlar tilida kuzatiladigan dialektal birliklarning izohi sifatida ko'plab manbalarda mutlaqo umumiy xarakterdagi "mahalliy koloritni berish uchun sheva so'zlaridan foydalaniladi" iborasi ishlatiladi. Masalan, "Bunday unsurlar (sheva unsurlari *i.b.*) hududiy mansublik, mahalliy koloritni alohida ta'kidlashga xizmat qiladi"<sup>1</sup>, "O'zbek adabiy tilida uchramaydigan, faqat shevalarda qayd qilinadigan so'zlar. Bunday so'zlar badiiy adabiyotlarda sheva koloritini berish jarayonidagina qo'llanadi"<sup>2</sup>, "Badiiy asarda mahalliy koloritni berish, qahramonning nutqini individuallashtirish, uning qaeqlik ekanini, tilidagi xususiyatlarni ko'rsatish maqsadida sheva so'zlardan foydalanadi"<sup>3</sup>. Ko'pchilik mutaxassislar tomonidan shu fikr takrorlanadi, vaholanki, bu ta'riflar ko'proq nasriy asarlarga mos tushadi va u epik

<sup>1</sup> Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2018. – Б.212.

<sup>2</sup> Аширбоев С. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ нашриёти, 2013. – Б.28.

<sup>3</sup> Ҳамроев М. Она тили (Педагогика факультети талабалари учун). – Тошкент: Иқтисод-молия, 2007. – Б.63.

tur asarlarida biror bir qahramon (personaj) tilida foydalaniladi hamda uning hududiy mansubligini aks ettiradi. She'riyat tilida uchraydigan sheva unsurlari umuman boshqa talab natijasi bo'lib, ular polifunksional xarakterga ega. Bu adabiy tildagi sheva unsurlari, lekin badiiy asar boshdan oxir shevada yozilgan bo'lsa, qanday yo'l tutish lozimligi masalasi bugungi kunda ochiq qolayotgan savollar sirasiga kiradi. Shevalar ham umummilliy tilimizga muntazam suv berib turuvchi manbalardan biridir. "Daryolar borib quyilmasa, dengizlar qurib qoladi. Xuddi shunday shevalarimizdan, lahjalarimizdan jonbaxsh jaranglar, so'zlar, yangi-yangi ifoda imkoniyatlari nasib bo'lib turmasa, har qanday "adabiy til", jumladan, o'zbek adabiy tili ham inqirozga yuz tutish xavfidan emin bo'la olmaydi"<sup>4</sup>, – deb yozadi Matnazar Abdulhakim o'zining o'g'uz lahjasida yozilgan she'rlar to'plami debochasida.

Ushbu fikrlar asosida aytish mumkinki, muallifning ushbu va boshqa to'plamlaridan joy olgan tilimizning o'g'uz lahjasida yozilgan she'rlari muallif ijodining ajralmas qismi sifatida tadqiq qilinishda va shoir uslubiy o'ziga xosligini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Muallifning shevada yozilgan ijodiy ishlari adabiy tilimiz rivojiga o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazishda ahamiyatli tajribalardandir. Ularni kuzatar ekanmiz, fonetik jozibadorlik va musiqiylik, ko'chimlar, ma'no tovlanishlari, omonim, sinonim, antonim va tagma'nolar asosida hosil qilingan go'zal falsafiy umumlashmalar sinkretiklik hosil qilib, badiiy durdonalar sifatida adib ijodini bezab turishining guvohi bo'ldik. Shunday ekan, bu namunalar chuqur va batafsil tadqiq qilinishga haqli deb hisoblaymiz.

Badiiy matn tadqiqi borasidagi bu izlanish sohadagi qo'l urilmagan qo'riq sifatida namoyon bo'ladi. To'g'ri, ba'zi manbalar badiiy matn tilidagi shevalar tadqiqiga bag'ishlangani bilan diqqatni tortadi. Masalan, Buxoro Qorako'l shevalari yuzasidan olib borilgan tadqiqotni; Zulfiya, Erkin A'zam asarlari lingvostilistikasiga doir tadqiqotlarni, "So'z estetikasi" risolasini shular jumlasidan deyish mumkin<sup>5</sup>. Bundan tashqari, F.Abdullaevning "O'zbek tilining Xorazm shevalari", O.Madrahimovning "O'zbek tili o'g'uz lahjasining Xiva shevasi" kitoblari<sup>6</sup> va turli davrlarda ilmiy jurnallarda chop qilingan maqolalar ham ham ishimiz uchun nazariy manba vazifasini o'taydi.

Umuman, Matnazar Abdulhakimning shevadan foydalanish mahoratini ikkita aspektda kuzatish va baholash mumkin. Birinchisi, boshdan oxir shevada yozilgan she'rlar. Ikkinchisi, adabiy tilda yozilgan she'rlar tarkibidagi sheva unsurlari.

<sup>4</sup> Abdulhakim M. Бир кучоқ гул. – Урганч, 1997. – Б.2.

<sup>5</sup> Алижон Аллабердиев. Шева лексикасини мавзу гуруҳлари асосида ўрганиш // Ўзбек тили ва адабиёти, 2016-йил, №6. – Б.82-86; Каримов С. Зулфия асарлари лингвостилистикаси (монография). – Самарқанд, 2006. – 130 б; Тошхужаева Ш. Эркин Аъзам асарлари лингвопоэтикаси: филол.фан. фалсафа док. (Doctor of Philosophy) дисс. – Фарғона, 2017. – 140 б. Абдурахмонов Х, Махмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981. – 59 б.

<sup>6</sup> Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси нашриёти, 1961. – 345 б; Мадрахимов О. Ўзбек тили ўғуз лаҳжасининг Хива шеvasи. – Урганч: Хоразм, 1999. – 95 б.

Leksik, fonetik va grammatik dialektizmlardan badiiy asar tilida uslubiy vosita (uslubiy figura) sifatida foydalanish hollari ham uchraydi<sup>7</sup>. Adabiy tilda yozilgan she'rlarda dialektal so'zlarning yo semantik, yoki shakliy tomoni o'quvchini o'ziga tortadi va badiiy matn butunligida muhim a'zo sifatida qatnashadi:

*Nechog'lik shod edim, termularman deb  
chorloqlar o'lkasin shukuh-shoniga.*

*Ko'llar ko'milibdi...*

*Kelibman bugun*

*moviy qo'shiqlarning qabristoniga.*

*Endi xotirada varanglaydi o'q,*

*tasavvurda qular **oydinga** g'ozlar (JT, 11).*

Matnda *oydin* so'zi Xorazm shevalarida – “orol, ko'llarning o'rtasidagi o'simliksiz, ochiq suv maydon, chuqur joy”<sup>8</sup> ma'nosida qo'llangan. Badiiy matnda ushbu so'z ekvivalentiga nisbatan poetik uslubga xoslangan holda ta'sirli ifoda imkoniyatiga ega bo'lib, “moviy qo'shiqlar qabristoni” birikmasi bilan integratsiyalashib, tasavvurda tasvir hosil qilib, mazmuni tiniqroq, ifodalibroq aks ettirgan.

*Hali jabru sitam **ko'hnaygani** yo'q,*

*Bir qiz bor, azobi o'limdan yomon.*

*Ketdik, “Chor devon”da har bir kiprik — o'q,*

*Ketdik, “Chor devon”da har bir qosh — kamon (JT, 20).*

She'rda **ko'hnaygan** so'zi “eskirgan” ma'nosida Xorazm shevalarida faol qo'llanadi. Bu so'zshakl adabiy tilda “ko'hna” tarzida o'tgan zamonga va muqaddas tarixiy obidalarga nisbatan sifatlash qilib qo'llanadi. Uni moddiy buyumlarning eskirishiga nisbatan qo'llash uzual adabiy til me'yorlarida kuzatilmaydi. Qisqasi, uslubiy jihatdan bu so'zning qo'llanishida ma'lum chegaralar bor. Bu o'rinda muallif tomonidan qo'llangan dialektalizm sifatida qaratuvchi ushbu so'z badiylikdan xoli emas. Bunda, birinchidan, so'z she'r ruhiyatini ifodalashga juda mos tushgan bo'lib, eski zamon, aniqrog'i, Navoiy davri ijtimoiy muhit nafasini beradi. Ikkinchidan, o'quvchi uchun bu so'z noodatiy bo'lib, diqqatni tez tortish xususiyatiga ega. Uchinchidan, so'z metaforik xarakterga ega bo'lib, tuyg'ular eskirmaydi, ko'hnaymaydi. Eskirish, ko'hnayish moddiy mavjud narsalarga xos. Demak, bu o'rinda “susayishi” ma'nosida metafora tarzida ko'hnaygan so'zi qo'llangan.

*Mayli. Har qadaming men uchun faxr,*

*Sira **elashtirib** bilmayman sani.*

*Tushunaman, sevish og'ir... ko'p og'ir*

*Hamma odamni va hamma narsani (JT, 37).*

<sup>7</sup> Жамолхонов Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 2002. – Б.165.

<sup>8</sup> Мадраҳимов О. Ўзбек тили ўғуз лаҳжасининг қисқача қиёсий луғати. – Урганч: Хоразм, 1999. – Б.36.

Misolda keltirilgan *elashtirmoq* fe'li Xorazm shevalarida faol mulozamat so'zi bo'lib, "aybga qo'shmoq", "ayblamoq", "gunohkor qilmoq"<sup>9</sup> degan mazmunda *elashtirmang* – "kechiring" degan mazmunida qo'llanadi. Bu so'z dialektal metafora bo'lib, un elash jarayoni bilan bog'liq. Bu jarayonda un pastga tushib, kepagi elakda qoladi. Jarayonda kepak, "ayb", "nuqson" ma'nosini olib, metaforani izohlaydi. Bugungi Xorazmda *elamoq* – "ayb qidirmoq", "aybini hijjalab izlash" mazmunida faol qo'llanib keladi. Vohada hazillashib, "Alak (elak)im yo'q" jumlasini ishlatiladi. Bu "aybingni izlamayman", "aybsitmayman" deganidir. Bundan tashqari o'g'uz lahjasiga asoslangan tillarda, masalan, turk tilida mazkur so'z "tanqid qilmoq" ma'nosida ishlatiladi<sup>10</sup>.

Bu o'rinda muallif qo'llagan ushbu so'z adabiy tilimizda sinonimik qatorning boyishiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatishini inkor qilish mumkin emas. *Kechir(ing)*, *uzr*, *avf(eting)*<sup>11</sup>, *elashtirmang* shaklida sinonimik qator boyishiga ushbu so'z potensializm sifatida hissa qo'shishi mumkin bo'ladi. Sababi har bir tilning ifoda imkoniyatlarini aniqlashda ko'plab omillar bilan bir qatorda sinonimlarning ko'lamiga ham qaralishini ta'kidlab o'tirishning hojati yo'q.

Metafora haqida fikrlarni davom qildirgan holda e'tiborimizni sheva so'zlarining ko'chim hosil qilish imkoniyatining muallif ijodida aks etishiga qaratamiz. Xorazmda mayda baliqlarga nisbatan *chavaq* so'zi qo'llanadi (Bu so'z adabiy tilga olingan). Mayda baliqlar (chavaqlar) suv yuzida quyosh nurida yaltirab, jilvirab, suzib yurishadi. Ularning ba'zan suv yuziga, ba'zan suv ostiga sho'ng'ishi chiroyli manzarani yuzaga keltiradi. Bu manzaradan shoir bir she'rida ustalik bilan foydalanadi. Natijada darhol tasavvurimizda shu manzara uyg'onadi:

*Tovlanadi qizg'ish atlas jimirlab,*

*Qizartirgan go'yo suv sathin shafaq...*

*Ilon quvib borar dumidan tishlab,*

*Sho'ng'ib-sapchib qochar kumushrang chavoq... (JT, 73)*

Matnda uchta metafora: *atlas* – suvga, *ilon* – ipga, *chavoq* – ignaga o'xshatilgan. Buni polimetaforik matn deyish mumkin. She'r "Ko'rpa qavilayotganda" deb nomlangan va atlas ko'rpga kirib-chiqib turgan igna dialektal so'z – *chavaq* vositasida go'zal tasvirlangan.

Til doim taraqqiy qilib, so'z boyligi ortib boradigan harakatdagi hodisa sanaladi. Uning boyib borishi turli manbalar bilan bir qatorda shevalar bilan ham bog'liq. "O'zbek adabiy tilining leksik boyligi, grammatik va uslubiy vositalarini kengaytirishda o'g'uz dialektlari ham muhim manba hisoblanadi, o'g'uz dialektiga xos

<sup>9</sup>Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси нашриёти, 1961. – Б.23.

<sup>10</sup><https://www.google.com/search?q=ele%20firmek+ne+demek&oeq=ele%20firmek&aqs=chrome.1.69i57j0l7.4378j0j7&sourceid=chrome&ie=UTF-8>.

<sup>11</sup>Хожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – Б.125.

ko'pgina so'z va grammatik formalarning adabiy tilga qabul qilinganligi buning dalili"<sup>12</sup> ekanligini yuqoridagi misollar yana bir bor tasdiqlaydi.

M.Yo'ldoshev "o'ramoq, burkamoq, chulg'amoq, chirmamoq" sinonimik qatori haqida gapirib, Cho'lponning mahorat bilan shulardan eng munosibini tanlagan holda matnda qo'llaganini ko'rsatadi: "*Cho'lpon tegishli mazmun uchun o'ramoq so'zini emas, balki aynan burkamoq so'zini tanlash orqali tasvirdagi aniqlik va ekspressivlikni oshirishga muvaffaq bo'lgan: Hali tuzuk, quruq odam qatoriga kirib etmagan bu qizchani katta xotinlarning oriyat paranjisiga burkaganlar*"<sup>13</sup>. Mazkur fikrga tayanib, Matnazar Abdulhakimning so'z qo'llash mahorati haqida ham shunga muvofiq tushadigan holatlarni kuzatamiz:

*Qahratonda seni ko'mdim qish bo'lib,  
Oppoq xayolimni ustingga o'rtiding.  
Bahor bo'ldim – yashil orzuga to'liq,  
Uyg'onding va so'ngra... ohista bo'rtiding* (JT, 28).

Bu o'rinda o'rtmoq fe'li "Devonu lug'atit turk"da "**O'pto'k** – parda, o'rtug; egar pardasi, katta odamlarning qabrlari ustiga yopilgan ipaklik va yopiladigan boshqa har narsaga ham shunday deyiladi"<sup>14</sup> tarzida izohlangan. Adabiy til uchun eskirgan bu so'z "Urganch, Xiva, Xonqa shevalarida "yashirmoq, bekitmoq: bir narsaning ustini yopmoq"<sup>15</sup> ma'nolarida ishlatiladi. O'rto'k so'zi o'g'iz lahjasiga asoslangan turkiy tillarda shu ma'noda keng qo'llaniladi. Matnda esa bu so'z "qish" so'zining semasi bilan mazmuniy qurshovda berilib, "asramoq" semasida okkazionallik kasb etgan. Chunki shevada shu fe'l asosidan **o'rtig** so'zi yasalgan, bu so'z "gavhari pech, beshik yopqichi" ma'nosida bo'lib, chaqaloqni turli xavf-xatarlardan asrash, avaylash vazifasini bajaradi. Bandda shu ma'noga ishora mavjud. Qorlar tabiatni avaylab, keyingi yil hosili uchun zamin hozirlaydi. Bundan tashqari, so'z qofiya unsuri vazifasini bajarib kelgani ham so'zning poetik salmog'ini oshirgan. Qisqasi, bu so'z muallif tomonidan sinonimlar orasidan saralab olinib, o'z o'rnida ustalik bilan qo'llangan va matn mazmunini ochishda muhim vazifa bajargani ko'rinib turibdi.

*Bir qorop qo'yg'oni qujoqlog'oni,  
Mildiroq damrilsa, qotti o'pgani* (BQG, 33).

Bu o'rinda garchi *termilmoq* fe'lining shevaga xos talaffuzidan yasalgan *damrilmoq* (so'z boshidagi t/d ga almashgan, so'z o'rtasiga rm-mr metatezasi, ya'ni undosh tovushlarning o'rin almashinishi mavjud) fe'li berilgan bo'lsa ham, *mildirab* qismi bilan bir butunlikda obrazli hissiy kechinma hosil qilingan va bu birikma ma'shuqaning ichki olamini juda chuqur ochib bergani ko'rinib turibdi.

<sup>12</sup> Турсунов У, Мухторов А, Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б.4.

<sup>13</sup> Йўлдошев М. Чўлопон сўзининг сирлари. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б.11.

<sup>14</sup> Махмуд Кошғарий. Девону луғатит турк. – Тошкент: Фанлар академияси нашриёти, 1960. – Б.128.

<sup>15</sup> Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. – Тошкент: Фанлар академияси нашриёти, 1961. – Б.72.

Omonimlar ham badiiy matnda soʻz oʻyini vositasi sifatida poetik vazifa bajaradi. Ayniqsa, tajnisli qofiya oʻquvchining diqqatini tortadi, buning uchun, albatta, muallifdan soʻz bilimdonligi talab qilinadi. Oʻgʻuz lahjasida *dirnoq* omonim soʻzi mavjud:

Dirnoq I. Barmoqlar uchining orqa tomonidagi etga yopishgan, barmoqlarni hi-moya qiluvchi, shoxsimon moddadan iborat tuzilma, qoplama.

Dirnoq II. Uy poydevorida qoʻyiladigan yakan yoki qamish qatlam, poydevor<sup>16</sup>. Ulardan muallif ustalik bilan foydalanib, badiiy matn yaratgan:

*Qiyomat polin qoʻy bu dong choqlori,*

*Odomzotni hayotdo koʻp hoqlori.*

**Dirnoqchalli** qoʻrqmo izgʻor chiqor dap,

*Koʻp makkamdir dunyoni **dirnoqlori**...*(TA2, 229)

“Qoromon” soʻzining tahlili yanada qiziq. Bu soʻz shakliy tomondan uzual adabiy tilda ikki holatda omonim boʻlishi mumkin. Shevada esa unda toʻrtta soʻzning fonetik qurilishini moslashtirish mumkin boʻladi:

*Xiva yoʻlin ikki cheti **qoromon**,*

**Qoromondo** oʻsgan goʻzzi **qoromon**.

*Yorim goʻrsanmiydi Xivo yoʻlindo,*

*Yurak qonim goʻz yoshimo **qoromon*** (TA2, 223).

Bu toʻrtlikda *qoromon* shakldosh soʻzi 1-misrada “daraxt nomi”, 2-misrada “qishloq nomi” hamda “qora rang”, 4-misrada “aralashtirmoq” maʼnolarida qoʻllangan. Shulardan birinchi va ikkinchi soʻzlar uzual adabiy tilda omonim boʻlsa, qolgan ikkalasi shevaning fonetik tabiati sababli ular bilan shaklan mos kelgan. Bu jarayonda muallifning tilga sezgirlik mahorati va til bilimdonligi namoyon boʻladi.

*Uchqur tulporloro xoromdir **oqsov**,*

*Dushmon qoro koʻngli boʻlormi **oqsov*** (TA2, 207).

Bu oʻrinda ham shevada ishlatiladigan I. Oqsov – oqsash. II. Oqimtir, oqsov – oq sifatining ozaytirma darajasining shevada ifodalanishi natijasida tajnisli qofiya yaratilgan.

Yuqoridagilardan koʻrinadiki, omonimlar ham Matnazar Abdulhakimning shevada yozilgan sheʼrlarida baʼzan soʻz ichida soʻz oʻyini uchun asos, baʼzan tajnisli qofiya boʻlib, muhim lingvopoetik vazifa bajargan.

Muallif ijodiga mansub shevada yozilgan badiiy matnlar tilida sinonim, antonim, omonimlar; metafora, metonimiya, tagmaʼnolar; arxaizm va istorizmlar bilan bir qatorda lakunalar (*fran. lacune* – muayyan madaniyatning muloqot jarayonida boʻshliq; chuqurlik; J.P.Vine va J.Darbelen termini) boshqa madaniyat vakili tomonidan toʻliq yoki qisman anglashilmaydigan oʻziga xos milliy unsuri<sup>17</sup>.

<sup>16</sup>Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. – Тошкент: Фанлар академияси нашриёти, 1961. – Б.24.

<sup>17</sup> Худойберганава Д. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентриқ талқини: филол.фан.номз. ...дисс. – Тошкент, 2015. – Б.224.

“Lug‘atning milliy-madaniy o‘ziga xosligi nafaqat o‘ziga xos so‘zlar qatori mavjudligida, balki boshqa tillarda ifodalangan ma’no (denotatsiya) so‘zlari yo‘qligida ham namoyon bo‘lishi mumkin. Bunday tushunchalar va ularni ifodalovchi so‘zlar singari, ular *lakuna* deb nomlanadi va faqat tillarni taqqoslashda seziladi. Bu tushuncha lingvokulturologiyada **milliy realiyalar** (Muayyan xalqning hayoti, turmushi, madaniyati, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti uchun xarakterli bo‘lgan predmetlar, hodisalar va ob’ektlarni nomlovchi; boshqa xalqlar uchun unchalik tanish bo‘lmagan yoki begona bo‘lgan, ularning tillarida aniq muqobili bo‘lmagan, milliy koloritni ifodalovchi so‘zlar yoki so‘z birikmalari<sup>18</sup>) tarzida ham yuritiladi. Agar biz turli xalqlarning tillari va madaniyatini taqqoslasak, unda bir-biriga mos keladigan va mos kelmaydigan elementlarni ajratishimiz mumkin. Til, albatta, madaniyatning tarkibiy qismidir. “Tilshunoslikda ekvivalenti bo‘lmagan lug‘aviy birlik “lakuna” atamasiga juda yaqin tushuncha bo‘lib, madaniyatlararo aloqada lakunarlik muammosi deb ataladi”<sup>19</sup>. Boshqa tillarga bir so‘z bilan tarjima qilib bo‘lmaydigan birliklar tarzidagi xulosalarda juz‘iy xato mavjud bo‘lib, bu fikrlarni tuzatish, to‘ldirish lozim. Aslida bir milliy til ichida ham farqlanuvchi lahjalar, madaniy birliklar mavjud bo‘lib, ularni taqqoslash ham tilshunoslikning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu sababdan terminning ta’rifini “*Tillararo va til ichidagi hududiy lisoniy va madaniy ekvivalenti bo‘lmagan so‘zlarga lakunalar deyiladi*” tarzida tuzatish lozim ko‘rinadi. Sababi bir davlat ichida ham hududiy lakunalar bo‘lishi mumkinligini inkor qilib bo‘lmaydi. Masalan, mamlakatimizning janubiy hududlarida mehmonga “*oling-oling*”, “*qani-qani*” so‘zlari mulozamat, dasturxonga taklif ma’nosida ko‘p ishlatiladi, biroq shimoliy hududlar Xorazm va Qoraqalpog‘istonda bunday mulozamatdan ko‘p foydalanish kuzatilmaydi yoki bir martagina ishlatilishi mumkin. Shunday ekan, lakunalarning bu jihatiga ham e’tibor qaratish kerak.

Umuman, lakunalar antropotsentrik jihatdan muhim amaliy ahamiyatga ega. Lakuna nafaqat so‘z – tushuncha shaklidagi lakunalar bo‘lmasdan, milliy-psixologik lakunalar (biror madaniyat vakillariga xos milliy-madaniy lingvistik xususiyatlarning boshqa madaniyat vakillariga xos emasligi, masalan, koreyslar uchun o‘zaro salomlashganda *Ovqat yedingizmi?* deb so‘rash odat tusiga kirgan bo‘lsa, o‘zbeklar muloqoti uchun bu holat notabiiy hisoblanadi), paralingvistik lakunalar (biror madaniyat vakillarining imo-ishorasi orqali ifodalanuvchi mazmun boshqa madaniyat vakillari uchun neytral bo‘ladi yoki boshqa ma’noni ifodalaydi: o‘zbeklarda qo‘lni oldinga uzatib, ko‘rsatkich barmoq bilan ishora qilish (*bu erga kel*) odamga nisbatan qo‘llansa, koreys va yaponlarda mazkur ishora odamga nisbatan qo‘llanmaydi) kabi ko‘rinishlarda ham bo‘ladi.

<sup>18</sup> Худойберганова Д. Кўрсатилган асар. – Б.231.

<sup>19</sup> Хакимова, Ш. Р. Лакуны как лингвистическое явление / — Текст : непосредственный // Молодой ученый. – 2015. – № 1 (81). – С.420-422.

Masofa o'lchovi, uy-ro'zg'or buyumlari, turli urf-odatlarni anglatuvchi so'zlar lakuna sifatida ommalashishi mumkin. Qisqasi, ular xalqning tashrif qog'ozi sifatida xizmat qiladi.

Matnazar Abdulhakimning shevada yozilgan she'rlari tarkibida faqat Xorazm hududida mavjud bo'lgan muqobilsiz leksika – lakunalar ham mavjud bo'lib, bular ayni paytda hududning o'ziga xos madaniyatini ko'rsatuvchi lingvokulturemalar sifatida xalqning urf-odatlari va turmush sharoitlarini aks ettiradi. Shu bilan birga, lingvopoetik ahamiyat ham kasb etadi.

Shoir she'riyatida Xorazm xalqining to'ylaridagina qilinadigan marosimlardan birini ifodalovchi *toxu toshosh* (taxtga tashlash) so'zi (lakunasi) qo'llangan. Bunda kelinni kuyov ko'tarib olib chimildiqdagi yotoq ustiga tashlaydi. Bu kuyovning kuchini bildirish, ustunligini ko'rsatish bilan birga yangi qurilayotgan oilada himoyachi ekanini ham anglatadi va bu odat Respublikaning ko'plab viloyatlarida kuzatilmaydi:

*Cheshma-buloqlori go'milmayan bir  
Yoyilg'on-yozilg'on yerda yoshosong.  
Chakkasinnan o'pib savgan yoringni,  
Bir qujoq gul atib **toxu toshosong** (BQG, 25).*

She'rda o'zbek kitobxonlari uchun qiziq fakt *toxu toshosh* udumi qo'llangani bilan birga poetik jihatdan *yoshosong* so'ziga qofiyadosh bo'lib, xushohanglikni yuzaga keltirgan.

To'y kechasidan oldin qilinadigan marosimlar ham diqqatga sazovor, xorazmliklarda sovchilarga rozilik bildirilsa, unashtirish jarayoni ichida *qont* (*qand*) *sindirish* odati mavjud bo'lib, elning kadxudo ayollari aytimchilik qilib turishadi va novvot(shirinlikning bir turi) ushatiladi. Bu go'zal odat yoshlarning turmushi shirin bo'lishiga ishoradir:

*Patiyr apgaldila, **qont sindirdilo**,  
El-yurt choqirdilo qotlomo qotlop* (BQG, 28).

Ijtimoiy hayotda boshqa joyda kuzatilmaydigan, ombor ma'nosini ifodalovchi *talak* so'zi Xorazm aholisining uysozlik sohadagi o'ziga xosligini ko'rsatadigan til birligidir. U omborning bir turi, "1. Boloxona. 2. Tom tepasiga qurilgan ombor"<sup>20</sup> (Xorazmda *talak* tom tepasiga qurilmaydi – ta'kid bizniki, J.M.) shiftga pastdan ochiq joy qoldirib quriladi va turli noz-ne'matlarni saqlashda foydalaniladi:

*Iyndiki yil **talak** do'lib-doshsin dap,  
Otizloro sapib chiqdim g'olloni.  
O'n besh gun qorong'i, o'n besh gun yoxti,  
Qizg'anch dap o'ylomo kambog'olloni* (BQG, 39).

<sup>20</sup> Шоабдурахмонов. Ш. Ш. Ўзбек халқ шевалари. – Тошкент: Фан, 1971. – Б.249.

Xorazmda kiyim-kechaklar ham o'ziga xos bo'lib, boshqa joylarda uchramaydigan *cho'girma*, *lachak*, *mongloycho* bosh kiyimlari nomlari hududning o'ziga xos madaniyatini aks ettiruvchi lingvokulturremalari hisoblanadi:

*Yodimnon hech chiqmiyn, go'rmasam oylob,*

*Jig'mi patla atar adi gajaki.*

*Iyndi o'tiribdi mongloycho boylob*

*Angsamni qotiror dog'diyn lachaki* (TA2, 202).

Ahamiyatli tomoni bandda berilgan *lachak*, *mongloycho* so'zlari lingvokulturologik jihatdan qiziq faktlarni yuzaga chiqaradi. *Lachak* kekxa yoshdagi ayollar tomonidan boshni mahkam tang'ib bog'lanadigan bosh kiyim nomi bo'lib, lirik menning xotiralarini uyg'otgan manzara **mongloycho** bog'lab lachakda o'tirgan ayol uning yoshligi va armonlarini esga soladi. Bu so'zlar matnda – behuda o'tgan umr, armonli sevgi iztiroblari mazmunini jonlantirgan.

Buyumlar vositasida paydo bo'lgan urf-odatlar haqida ham alohida kuzatish olib borish lozim. Xorazmning qadim an'analaridan biri bordi-keldi munosabatlari bilan bog'liq. Respublikaning boshqa hududlarida ham yaqin kishilar, qarindoshlar, do'st va ulfatlar orasida bordi-keldi qilish mavjud bo'lib, Xorazmda bu jarayonda bir farqli buyum(lar) lakuna sifatida alohida nom bilan qo'llanadiki, u boshqa viloyatlarda yoki boshqa lahja vakillari tilida kuzatilmaydi. *Elgazar* nomi bilan yuritiladigan buyum bilan bog'liq odat-an'ana vohaga xos:

*Qodiyim xudoy tolo atyannan nazar,*

*Alaka od varib qo'yib "elgazar".*

*Un aliyjak voxdo butun bir urom*

*O'ngishar adilar qo'ngishidon so'rop.*

*Hozir odomloni bilmiyn jon halak,*

*Boyiymon dap hamma el chakachondir.*

*Hozir har galiynda do'rt-beshdan alak,*

*Yo'q dayan uyingda ikkidan tondir* (TA2, 204).

Lakuna areal o'ziga xoslikka ega bo'lib, matnda *tondir* (tandir), *alak* (elak) so'zlari bilan aloqaga kirishib, o'zaro mehr-oqibat ramzini ifodalagan. Shu sababdan ham bu o'rinda badiiy matn butunligida muhim lingvopoetik vazifa bajargan.

Xullas, lakunalar nafaqat tillar orasida, balki til ichida areal jihatdan ham kuzatilishi mumkin. Shu borada Matnazar Abdulhakim ijodida alohida o'rin egallagan o'g'uz lahjasida yozilgan she'rlar tilida o'zbek adabiy tili yoki boshqa lahjalarda kuzatilmaydigan lakunalar vohaning o'ziga xos madaniyati, tilini ko'rsatishda, qolaversa, muallifning badiiy matn yaratishdagi mahoratini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2018.

2. Ashirboev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013.
3. Hamroev M. Ona tili (Pedagogika fakulteti talabalari uchun). – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2007.
4. Abdulhakim M. Bir qujoq gul. – Urganch, 1997.
5. Alijon Allaberdiev. Sheva leksikasini mavzu guruhlari asosida o'rganish // O'zbek tili va adabiyoti, 2016-yil, №6.
6. Karimov S. Zulfiya asarlari lingvostilistikasi (monografiya). – Samarqand, 2006.
7. Toshxujaeva Sh. Erkin A'zam asarlari lingvopoetikasi: filol.fan. falsafa dok. (Doctor of Philosophy) diss. – Farg'ona, 2017.
8. Abdurahmonov X, Mahmudov N. So'z estetikasi. – Toshkent: Fan, 1981.
9. Abdullaev F. O'zbek tilining Xorazm shevalari. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1961. Madrahimov O. O'zbek tili o'g'uz lahjasining Xiva shevasi. – Urganch: Xorazm, 1999.
10. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2002.
11. Madrahimov O. O'zbek tili o'g'uz lahjasining qisqacha qiyosiy lug'ati. – Urganch: Xorazm, 1999.
12. Abdullaev F. O'zbek tilining Xorazm shevalari. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1961. – B.23.
13. <https://www.google.com/search?q=ele%C5%9Ffirmek+ne+demek&oq=ele%C5%9Ffirmek&aqs=chrome.1.69i57j0l7.4378j0j7&sourceid=chrome&ie=UTF-8>.
14. Hojiev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1974.
15. Tursunov U, Muxtorov A, Rahmatullaev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston, 1992.
16. Yo'ldoshev M. Cho'lopon so'zining sirlari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002.
17. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'atit turk. – Toshkent: Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1960.
18. Matnazar Abdulhakim. Javzo tashrifi. – Toshkent: Sharq, 2008.
19. Matnazar Abdulhakim. Tanlangan asarlar (2-jild) – Toshkent: G'.G'ulom, 2017.
20. Xudoyberganova D. O'zbek tilidagi badiiy matnlarning antroposentrik talqini: filol.fan.nomz. ...diss. – Toshkent, 2015.
21. Hakimova, Sh. R. Lakuni kak lingvisticheskoe yavlenie / — Tekst : neposredstvennyy // Molodoy uchenyy. – 2015.
22. Shoabdurahmonov. Sh. Sh. O'zbek xalq shevalari. – Toshkent: Fan, 1971.